



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

XIVA XONLIGIDA MA'MURIY ISLOHOTLAR: ABULG'OZIYXON VA UNDA KEYINGI DAVRDA XONLIKNING MARKAZIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Xamrayeva Nargiza Shodiyevna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada XVII asr Xiva xonligi tarixidagi muhim davr Abulg'oziy Bahodirxon hukmronligi va undan keyingi davrlarda amalga oshirilgan ma'muriy – siyosiy islohotlar tahlil qilingan. Tadqiqotda xonlik boshqaruv tizimining markazlashuvi, davlat apparatining takomillashuvi hamda Abulg'oziyxon tomonidan joriy etilgan an'anaviy va yangi boshqaruv usullarining o'zaro nisbati yoritib berilgan. Xonlikning markaziy boshqaruvida harbiy-ma'muriy munosabatlar, devon tizimi va qabila urug' guruhlarining tutgan o'rnidagi o'zgarishlarni tarixiy manbalar asosida ochib berilgan. Shuningdek, xon hokimiyatining mustahkamlanishi va mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro munosabatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Abulg'oziy Bahodirxon, ma'muriy islohotlar, markaziy hokimiyat, boshqaruv tizimi, devon, harbiy ma'muriy tuzilma, bekklik, noiblik.

АДМИНИСТРАТИВНЫЕ РЕФОРМЫ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ: ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ЦЕНТРАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРИ АБУЛГАЗИ-ХАНЕ И В ПОСЛЕДУЮЩИЙ ПЕРИОД

Хамраева Наргиза Шодиевна
Шахрисабзский государственный педагогический институт, (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируются административно-политические реформы, проведенные в Хивинском ханстве в XVII веке — в период правления Абулгази Бахадур-хана и в последующие годы. В исследовании освещаются централизация системы управления ханства, совершенствование государственного аппарата, а также соотношение традиционных и новых методов управления, введенных Абулгази-ханом. На основе исторических источников раскрываются изменения в военно-административных должностях, системе девон (канцелярии) и роли племенных групп в центральном управлении ханства. Также проводится сравнительный анализ укрепления ханской власти и ее взаимоотношений с органами местной власти.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Абулгази Бахадур-хан, административные реформы, центральная власть, система управления, девон, военно-административная структура, бекство, наибство.

ADMINISTRATIVE REFORMS IN THE KHIVA KHANATE: CHANGES IN THE CENTRAL GOVERNANCE SYSTEM DURING THE REIGN OF ABULGAZI KHAN AND THE SUBSEQUENT PERIOD

Khamrayeva Nargiza Shodiyevna
Shahrisabz State Pedagogical Institute, (PhD)

Abstract

This article analyzes the administrative and political reforms implemented in the Khanate of Khiva during the 17th century, specifically focusing on the reign of Abulghazi Bahadur Khan

and the subsequent period. The study examines the centralization of the khanate's administrative system, the enhancement of the state apparatus, and the correlation between the traditional and new governance methods introduced by Abulghazi Khan. Based on historical sources, the article explores changes in military-administrative positions, the devon (chancellery) system, and the evolving roles of tribal groups within the central government of the khanate. Furthermore, it provides a comparative analysis of the consolidation of the khan's authority and its interaction with local government bodies.

Keywords: Khanate of Khiva, Abulghazi Bahadur Khan, administrative reforms, central authority, governance system, devon, military-administrative structure, beklik, naiblik.

Xiva xonligi XVII asr va undan keying davrlarda murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshidan kechirdi. Ayniqsa, Abulg'oziyxon hukmronligi davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlash, davlat boshqaruvini tartibga solish va xonlik hududida ma'muriy islohotlar o'tkazish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Bu islohotlar davlatni boshqarishda qat'iy markazlashuvga erishish, mahalliy hokimlar ustidan nazoratni kuchaytirish va soliqlarni tizimli yig'ish kabi masalalarni o'z ichiga olgan. Abulg'oziyxondan keying hukmdorlar ham bu siyosiy kursni davom ettirib, markaziy boshqaruv tizimini takomillashtirishga intildilar. Mazkur mavzuni o'rganish oraqali Xiva xonligining davlatchilik asoslari, siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi yondashuvlari va ma'muriy tizimdagi muhim o'zgarishlar yuzasidan muhim xulosalar chiqarish mumkin[13].

Tadqiqot Metodologiyasi (Methodology). Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli-strukturaviy, kritik-tahliliy va manbashunoslik metodlari qo'llaniladi. Manbalarni o'rganishda ularning yozilish maqsadlari, mualliflarining dunyoqarashi, davrning siyosiy-ijtimoiy sharoitlari hisobga olinadi. Tarixshunoslik tahlilida esa turli davrlarda yozilgan asarlarda Abulg'oziy Bahodirxon hukmronligi va undan keyingi davrlarda amalga oshirilgan ma'muriy – siyosiy islohotlarga berilgan baholarning evolyutsiyasi, ulardagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi. Maqola doirasida mavjud ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va maqolalar ham o'rganilib, umumlashtiriladi.

Tadqiqot Natijalari (Results). Xiva xonligi XVI-XVIII asrlarda hududiy-ma'muriy nuqtai nazardan viloyatlarga ajratilgan bo'lsa, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga kelib, bub o'inmalar beklik nomi bilan ataladigan asosiy ma'muriy birliklarga aylantirilgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, bu davrda xonlik hududida jami 16 ta beklik va 2 ta noiblik faoliyat yuritgan. Ular tarkibiga Hazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna Urganch, Qo'shko'pik, Pitnak, Qiyot, Shohaboz (Shobboz), Shovot, Toshhovuz, Ambarmanak, Urganch, Xo'jayli, Shumanay hamda Qo'ng'iro't bekliklari, shuningdek, Beshariq va Qiyot-Qo'ng'iro't noibliklari kirgan. Ushbu hududlarni bevosita xon tomonidan tayinlangan beklar va noiblar boshqarib turgan. Xiva shahri esa xon va oliy darajadagi vazirlar nazoratida bo'lgan. Xonlikning bosh shahri turli tarixiy bosqichlarda Vazir, Kat, Ko'hna Urganch va Xiva bo'lib kelgan [1].

Xiva xonlaridan Abulg'oziyxon hokimiyat tepasiga kelgan birinchi Kundan boshlab asosiy e'tiborini davlatni mustahkamlash masalasiga qaratdi. U turkman zodagonlarini davlat boshqaruvi ishlaridan chetlashtirdi. Ularning qo'llarida mol-u mulklarini, yer-suvlarini tortib olib, o'zlarini xonlik ichkarisidan quvg'in qildi. Turkmanlar Xurosonga, Janubiy Turkmanistonga, Abulxon va Mang'ishloqqa ko'chib ketishga majbur bo'ldilar[2]. Xonlikning barcha yuqori lavozimlari o'zbek hukmdorlari qo'liga topshirildi.

Xiva tarixchi Munisning qayd etishicha, Abulg'oziyxon ma'muriy islohotlar amalga oshirib, xonlikning markaziy boshqaruv tizimini butunlay qayta shakllantirgan. U o'zbek zodagonlaridan 360 kishini[2]. xonlikning turli lavozimlariga tayinladi. Shulardan eng obro'li 32 kishiga saroyda o'z yonidan o'rin berdi [2]. Ular xonning yaqin maslahatchilari bo'ldilar. Shuningdek, saroyda 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlarini tashkil etib, ular quyidagicha taqsim etiladi: 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 1 ta noib, 4 ta otaliq, 4 ta inoq, 4 ta mirob, 4 ta biy, 1 ta

parvonachi, 2 ta aka, 2 ta arbob, 4 ta chig'atoy-inoqi, 1 ta vazir (u mehtar deb yuritilgan) va yana 1 ta qushbegi lavozimlaridir [2].. Shu tariqa Abulg'oziyxon o'zbeklar hamda mahalliy aholining obro'li vakillarini davlat boshqaruvi ishlariga jalb qilgan holda, ular o'rtasida muayyan barqarorlikka erishdi. Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi esa unga ichki va tashqi siyosatni keng miqyosda olib boorish imkonini taqdim etdi [3].

Tadqiqotchi X.Matyakubovning ilmiy maqolalarida Abulg'oziy Bahodirxon Xorazm xonlari ichida xonlik taxtini 1663-yilda o'z ixtiyori bilan o'g'li Anushaxon ibn Abulg'oziyxonga tinch yo'l bilan topshirgan yagona hukmdor sifatida izoh qoldiradi. Shuningdek, Abulg'oziyxon tarizda buyuk islohotchi hukmdor va olim sifatida nom qoldirganligini ayrim ma'lumotlarga tayanib asoslaydi. Xususan, xonlik hunarmandchiligi tarixiga Xorazmshohlar davridan boshlab nazar tashlansa, bu davrga kelib Xorazmdagi shaharlarda yirik hunarmandchilik markazlari paydo bo'ldi. Ip, mato, gilam, shoyi, mis va temirdan qurol-aslaha, pichoq tayyorlash, shisha mahsulotlar tayyorlash avj oldi. Bu davrdan boshlab Xorazmda me'morchilik va hunarmandchilik birmuncha rivojlanib bordi, chunki bu davrlarda Xorazm madaniy hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Shaharlar qiyofasi o'zgaradi: saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar qurildi. Ayniqsa, bino va inshootlar qurilishida o'ymakorli ustunlardan keng foydalanilgan. "Abulg'oziyxon o'zbeklarning urug'larini birlashtirib to'pa deb atadi va bu to'palarning boshlig'i qilib inoqlar belgilandi. Bunday to'palar Xivada to'rttinani tashkil etgan, endi avvalgi shajara boshliqlari (biylar), urug' oqsaqollari (otaliqlar) ustidan yangi boshliq-inoq hukmdor bo'lib qoldi. Urug'lar birlashtirilgandan keyin uyg'ur-nayman, qo'ng'iroq-qiyot, nukus-mang'it, qang'liqipchoq to'palari paydo bo'di. Bu to'rt to'paning ichida eng kuchlisi qo'ng'iroq urug'i bo'lib, uning boshlig'i bo'lgan inoqning xonga va mamlakat siyosatiga ta'siri birmuncha kuchli edi" [5].

Tahlil va Muhokama (Analysis and Discussion). Xiva xonligida Abulg'oziy Bahodirxon va ungacha bo'lgan sulola vakillarining ma'muriy islohotlari xususida tarixchi olimlar N.Allayevaning tadqiqotlaridan ham bilib olish mumkin. Xususan, olimaning Arabshohlar sulolasi tarixi bo'yicha bergan ma'lumotlarida bugungi kungacha ushbu sulola tarixi olimlar tomonidan keng qamrovda o'rganilmaganligi, bugungi kunga kelib bunday tadqiqotlar sanoqli ekanligini ta'kidlab o'tadi. Umuman, Arabshohlar sulolasining hokimiyatga kelishini Qipchoq dashti chingiziylari bilan Xorazm kibarlari o'rtasidagi o'ziga xos kelishuv sifatida qarash kerak bo'ladi. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida bu haqida batafsil ma'lumot beriladi [12]. Ma'lumki, 1510-yilda Muhammad Shayboniyxon bilan Ismoil Safaviy qo'shinlari o'rtasida to'nashuv yuz bergan. Buxoroda hokimiyat o'rnatgan Arabshohlar, Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar amakivachchalarning o'g'illari bo'lganini qayd etib o'tish joiz. Ular – bir sulolaning ikki tarmog'i, shuning uchun Xiva shayboniylari va Buxoro shayboniylari sifatida nom qozongan. Ular – bir sulola, bir kishining avlodlari, shuning uchun arabshohlarning Xivaga va shayboniylarning Buxoroga kelishi bir vaqtda yuz bergan edi. Ammo bu holga turli tomondan nazar solish kerak bo'ladi, chunki Muhammad Shayboniyxon Buxoro bilan Samarqandga Dashti Qipchoqdan bostirib kirgan va u yerlarda harbiy to'qnashuvlar bo'lgan. Amma Xivadagi vaziyat butunlay boshqacha bo'lgan. U yerda 1510-yilda, qayd etib o'tganidek, Marv shahri yaqinida Muhammad Shayboniyxon bilan Ismoil Safaviy o'rtasida to'qnashuv yuz bergan va jangda Shayboniyxon halok bo'lgan. Ungacha 1505-yilda Muhammad Shayboniyxon Xorazmni zabt etgandan so'ng uni o'z davlati tarkibiga qo'shib olgan edi, shu bois keyinchalik Xorazm hududi o'z-o'zidan Safaviylar (Eron) va Ismoilshoh qo'liga o'tgan. Biroq 1510-yilda juda qisqa vaqt mobaynida – bir yilcha deyish mumkin – qo'zg'olon tayyorlangan va Vazir shahri xalqi qozi Umar boshchiligida qo'zg'olon hozirlab, barcha qizilboshlarni (bosh kiyimi – salladagi 12 ta qizil chiziq 12 nafar shia imomini bildirgan), ya'ni Eron qo'shinlari va Ismoilshoh vakillarini mamlakatdan haydab chiqargan. Shundan so'ng ular mashhur va hurmatli shaxs – Said Otaning avlodi Hisomiddin Qittolga murojaat etib, taxtni egallab, o'z podshohi sifatida e'lon qilishini istagan. U esa hokimiyat legitimligi haqida gapirgan[6].

Tadqiqotchilardan T.Xudoyqulov o'z asarlarida XVII asrda Xiva shahrida barqaror bir sulolaning hukmron bo'lmaganligi ta'kidlaydi. Uning fikricha, Chingiziylar avlodidan ayrim shaxslar Xivaga taklif etilib, xonlik taxtiga chiqarilgan bo'lsa-da, amaliy hokimiyat aslida qo'ng'iroq urug'idan chiqqan inoq zodagonlar qo'lida bo'lgan. Muallifning qayd etishicha, 1804-yildan boshlab Xivada faqat qo'ng'iroqlar sulolasi vakillari hukmronlik qilganlar. Haqiqatda ham, Xiva xoni Muhammadxon Rahimxon I (1806-1825) davrida xonlikning boshqaruv tizimida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilgan. Bekliklar markaziy hokimiyatga bo'ysunmasligidan kelib chiqib, u xonlik hududini "kent" larga ajratishni bekor qilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, dastlab 15 ta, keyinchalik yana 11 ta hokimlik barpo etilgan. Ular quyidagilardan iborat bo'lgan: Hazorasp, Ostona, Urganch, Kat, Toshhovuz, Qo'shko'prik, Oqdarband, Gurlan, Ko'k Qashqa, Qo'ng'iroq, Ko'hna Urganch, Ilonli, Taxta, Xonqa, Shohboz, Manoq, G'ozibod, Shayx, Mang'it, Xo'jayli, Shumanay, To'rchi, Oqtepa, Qoragon, Xitoy. Mazkur hokimliklar esa o'z navbatida masjid-qavmlar (yirik mahalliy birliklar) ga ajratilgan. Tarixiy hujjatlarga ko'ra, xonlikda jami 1537 ta masjid-qavm mavjud bo'lgan. Viloyat hokimlari bevosita xon tomonidan, masjid-qavmlarning qozilari va oqsoqollari esa viloyat rahbarlari tomonidan tayinlangan [7].

Umuman olganda, Xiva xonligidagi ma'muriy islohotlar o'sha davr Sharq davlatlarining barcha belgilarini o'zida aks ettirgan, islom diniga tayangan mutlaq yakka hukmronlikka asoslangan davlatlar tizimini esga solidi. Bu islohotlar xonlikning markaziy hokimiyatini mustahkamlash va ma'muriy boshqaruvni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, ko'plab sharqiy monarxiyalardagi boshqaruv tizimlariga o'xshash edi. Undagi davlat tashkilotlari va idoralari, ularning nomlari, Dashti Qipchoq o'zbeklari, Buxoro, keyinchalik Qo'qon xonliklaridan deyarli farq qilmasa-da, u yoki bu davlat mansabining mavqei, uni egallash tartibiga ko'ra ba'zi o'ziga xos tomonlari mavjud edi.

Tadqiqotchi Z.Muqimov ham o'zining ilmiy ishlarida Xiva xonligidagi ma'muriy islohotlar xususida ayrim ma'lumotlarni tahlil qilib o'tadi-ki, yuqorida berilgan (olimlarning tadqiqotlaridagi ma'lumotlar) ma'lumotlar bu bilan o'z tasdig'ini topadi. Xususan, jumladan, Abulg'oziyxon davrida (1645-1663) Xorazmdagi dasht o'zbeklari qiyot-qo'ng'iroq, uyg'ur – nayman, qng'li-qipchoq kabi qabila va urug'larga birlashib, qolganlari ham ana shu ittifoq tarkibiga kirgan. To'rt guruhga qabila boshliqlari – inoqlar rahbarlik qilib, ular hatto xonlarga ham buysunishga rozi bo'lmaganlar. Inoqlar hokimiyati kuchaygan vaqtlarda xonlar nomigagina xonlik qilishgan. Xorazmda xon hokimiyatining zaiflashuvi va urug' zodagonlari ta'sirining kuchayishi natijasida qo'g'irchoq xonlarni ko'tarish rasmga aylangandi. O'sha davrdagi o'zbek xonliklarida bu tabiiy hol edi. Chunki davlat muayyan qatlamga tayangan siyosiy tashkilot bo'lsa, asosan, urug' zodagonlar qo'lida bogan armiya uning harbiy qudrati hisoblanardi. O'sha paytdagi o'zbek urug'lari harbiy zodagonlarga tayangan tuzum hukmron bo'lgan jamiyatda yashar edilar. Xonlar esa harbiy kuchni, uning Manbai va ta'minotini o'z qo'lida to'plagan inoqlar, biylar, beklar va beklar beginning qo'llab-quvvatlashsiz hukmronlik qila olmas edilar. O'zbek urug'larining yuqori tabaqasi qabila boshliqlaridan iborat harbiy-fuqaro boshliqlari lavozimidagi yirik yer egalardan tashkil topgan edi. Davlatning eng katta amaldorlari inoqlar, otaliqlar, beklardan tanlab olinardi. Xon tomonidan tayinlanib qo'yilgan vazir yoki mehtar hamda qushbegilar Xivaga kelib istiqomot qiluvchi qabila boshliqlaridan bo'lib, ular orasida besh kishidan iborat xon maslahatchilari tayinlangan. Bundan tashqari, ikki va undan ortiq otaliq, mingboshi va yasovul kabilar tayinlangan [10].

Davlat boshlig'i bo'lgan xonning hokimiyat vakolati nasldan-naslga o'tib, rasman mutlaq mazmun kasb etgandi. Sayyoh N.Muravyovning o'z esdaliklarida Xiva xonining hokimiyati vakolatiga to'xtalib, uni shunday tavsiflaydi: "Hozir Xivada o'z hohishicha hukmronlik qilish mavjud, u hech qanday qonun yoki umumfikir bilan cheklanmagan. Shuning uchun ham yakka hukmron hukmdor hoxishiga bog'liq. U esa xonlikka o'z Mulki sifatida qaraydi va uni o'zining manfaatlari hamda boyishi yo'lida boshqaradi" [8].

Mamlakatda Sherg'ozixon (1715-1728 yillarda) ning hukmronligi davri siyosiy voqealar

bilan boy bo'ldi. Uning hukmronligi asosan o'zbek, turkman va qoraqalpoq zodagonlarining o'zboshimchalik harakatlariga qarshi kurash bilan o'tdi. Bu davrda Orol bo'yidagi o'zbeklar orasida siyosiy vaziyat keskinlashdi. Buning asosiy sababi Orol bo'yida yashovchi o'zbeklarning Qo'ng'iroq, Mang'it, Xo'jayli va Qipchoq urug'lariga mansub aholisining mustaqillik uchun kurashlari edi. Bu kurashlarga boshchilik qilgan Mang'it biylaridan Sheralibiy Xiva xonligiga itoat etishni rad etib, Orol bo'yini mustaqil hokimlik deb e'lon qildi. Sherg'ozixon bu yerda sodir bo'lgan harakatlarni bostirishga harakat qilgan bo'lsa-da, butunlay buni amalga oshirolmadi.

Sherg'ozixon vafotidan so'ng taxtga o'tirgan qozoq sultoni Elbarsxon (1728-1740 yillar) hukmronligi davomida ichki ziddiyatlar davom etdi va qo'shni hududlarga ko'plab talonchilik yurishlari uyushtirildi, bu esa Xiva xonligining harbiy qudratining pasayishiga olib keldi. Bu holatdan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1740-yilda Xiva xonligiga hujumni boshladi. Avval, Xazorasq yaqinida Xiva qo'shinlari bilan eronliklar o'rtasida qattiq jang sodir bo'ldi. Ushbu jangda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Hazorasp qal'asiga chekinishga majbur bo'ldilar. Eronliklar Hazorasp qal'asini uzoq vaqt davomida qamal qilib, uni zabt eta olmadilar, so'ng Xonqa qal'asiga hujum qilishdi. Shu vaqtda vaziyat o'zgarib, Elbarsxonga yordam berayotgan mang'it beklar Nodirshoh tomoniga o'tdilar. Natijada Elbarsxon mag'lub bo'lib, asirga olinib, Nodirshoh tomonidan qatl etildi[9].

Markaziy Osiyo davlatlari boshqaruvi bo'yicha (tarixiy manbalar orqali tahlil qilingan) ma'lumotlar tadqiqotchi olim Sh. Vohidovning asrlarda ko'plab uchraydi. Jumladan, muallifning "Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan" nomli kitobida xonlikda eng oliy unvon xon unvoni bo'lib, u ma'muriy, siyosiy va harbiy (ba'zan diniy) vakolat hamda salohiyatga (qudratga) ega ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Umuman olganda, 1804-yildan boshlab faqat Qo'ng'iroq sulolasining vakillari Xiva xoni bo'lishgan. Xiva xonligi Buxoro amirligi va Qo'qon xonligidan farqli o'laroq, saroyda, xon huzurida faoliyat yurituvchi Kengash mavjud edi. Ushbu Kengashning vakolatlari juda cheklangan bo'lib, u asosan maslahat beruvchi organ sifatida ishlagan. Kengash a'zolari eng yuqori lavozimdagi amaldorlar bo'lib, unda inoq, shayxul-islom, devon va yasovulboshi boshqalar bilan solishtirganda hal qiluvchi ovozga ega edilar. Kengash majlisi, odatda, xonning xohishiga ko'ra yig'ilishlar o'tkazilar va masalalar uning roziligi bilan hal etilardi.

Mazkur tor doiradagi maxfiy kengash, garchi davlat tashkiliy jihatdan rasmiy ravishda belgilanmagan bo'lsa-da, uning qarorlarining xon qarorlariga teng ko'rsatilishi mumkin edi. Biroq, amalda bu kengash yuqori darajadagi qonun chiqaruvchi, ma'muriy va sud hokimiyati funksiyalarini bajarardi. Kengash a'zolari xonlikning ichki ishlariga doir barcha masalalarda qarorlar qabul qilishar va xonlikning boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlari bilan bog'liq muammolarni ham hal etishardi. Bu holatni XIX asrda Xivaga tashrif buyurgan chet el elchilarining yozib qoldirgan xotiralari tasdiqlaydi. Ushbu elchilarni xon zonda bo'yi bilan yuqori amaldorlar ishtirokida qabul qilgan [5].

Xonlik saroyida unvonlar va lavozimlar quyidagicha taqsimlanardi. Unvonlar orasidaeng oliy maqom inoqqa tegishli edi. Odatda, inoqlar kuchli o'zbek urug'laridan tayinlanib, xonning yaqin maslahat beruvchilari bo'lib xizmat qilgan.

Inoqlar katta amaldorlar sifatida urug' boshliqlari lavozimida faoliyat yuritgan. Abulg'oziyxon tantanali marosimlarda inoqlarga o'z yonidan to'rtta o'rin ajratgan. Inoqlar, shuningdek, biy, sulton, mingboshi kabi lavozimlarni ham olishgan. XX asr boshlariga kelib, inoqlar bek darajasiga tushib, yuqori saroy amaldorlaridan ma'muriy lavozim egalari sifatida faoliyat ko'rsatishgan [11].

Shu o'rinda xonlikning markaziy boshqaruvidagi asosiy unvon va mansablar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tishni lozim topdik.

Otaliq – urug'ning oqsoqoli. Inoq esa boshliq to'raga birlashgan urug' boshlig'idir. U xonning eng yaqin maslahat beruvchilaridan biri bo'lgan. Otaliq esa jangovar quroli va pichog'i bilan doim harakatda bo'lgan.

Biy – saroyda beriladigan unvon. Inoq va otaliqdan keyin turadigan martaba. Biy qabila va urug‘ning boshqaruvchisi bo‘lib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turkiy xalqlarda, jumladan o‘zbeklarning urug‘ oqsoqollariga berilgan unvondir. XVIII-XIX asrlarda biylar yirik o‘zbek qabila va urug‘lariga rahbarlik qilib, faqat markaziy hokimiyatga bo‘ysunganlar. Biy unvoni avloddan avlodga meros sifatida o‘tgan.

Amir ul-umaro – Amirlarning amiri Xiva xonligida XIX asr o‘rtalarida ta‘sis etilgan. Lekin mahalliy tarixnavis Munis “amir” unvoni XIX asr o‘rtalaridan oldin ham bo‘lganligini qayd etadi. Lekin bunday unvon va mansab Abulg‘oziy Bahodirxon asarlarida, so‘nggi davr manbalari yoki tadqiqotlarida (XIX-XX asr boshida “maosh to‘lanadigan davlat arboblari ro‘yxati” da) ham keltirilmagan. Balki “amir” so‘zi mualliflar tomonidan u yoki bu to‘raga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin. “Dili g‘aroyib” asarining muallifi shu asarni bag‘ishlab yozgan Hazoraspdagi inoq Rahmonqulini “amir” deb atarkan, aslida bu o‘rinda Rahmonquli to‘raning “amir ul-umaro”lik mansabi ko‘zda tutilgan. Haqiqat ham, bu inoq shu davrda hokimiyatni boshqargan akasi Olloqulixon qo‘shinida amir ul-umarolik vazifasini bajarar edi [7].

Xulosa (Conclusion). Xullas, Xiva xonligi XVI-XIX asrlarda o‘ziga xos ma‘muriy boshqaruv tizimi, qudratli xonlar tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va qabila zodagonlari bilan murakkab munosabatlar tizimi orqali yashab kelgan bo‘lib, ayniqsa, Abulg‘oziy Bahodirxon davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, boshqaruv lavozimlarini tartibga solishga va davlatni barqarorlashtirishga qaratilgan chuqur islohotlar amalga oshirilgan; bu jarayonda inoq, otaliq, biy kabi amaldorlar muhim rol o‘ynagan, ammo keyinchalik, ayniqsa XIX asr oxirlarida Rossiya protektoratiga aylangach, xonlikda siyosiy mustaqillik cheklanib, an‘anaviy boshqaruv tizimi asta-sekin o‘zgarib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. // Исследование и описание документов с историческим введением. Новые источники для истории народов Средней Азии, Санкт – Петербург, 1940
2. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Б. 91.
3. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк / Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Қ.Маҳмудов. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б.12, 159 – 189.
4. Матякубов Х. Арабшоҳийлар даври хони Абулғозий Баҳодирхоннинг ҳаёти, хонликдаги бошқарув ислохотлари, тарихий асарлари ва хонлик хунармандчилиги. Международный научный журнал № 12(100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке». Июль, 2023. – Б. 146-147.
5. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tapixidan (XIX-XX asr boshlari). – Toshkent. Yangi asr avlodi. 2006. – B. 48-50.
6. Подкаст «Орды и империи». История Центральной Азии в потоке глобальной истории. Хива хонлиги ҳақида тарихчи Нигора Аллаеванинг суҳбати (хикоя қилади). <https://www.uzanalytics.com/tarix/10605/>
7. Xudayqulov T. Markaziy Osiyo davlatlari boshqaruvi tapixi (markaziy, mahalliy, harbiy, diniy hokimiyat (XVIII – XX asr boshlari)). Monografiya: – Toshkent: 2023. – 217 b.; Bayoniy. Xorazm tapixi, 376 a varaq.
8. Н. Муравьев. Путешествие и Туркмению и Хиву. Ч. II. 58-бет.
9. Eshov B. O‘zbekiston davlat va mahalliy boshqaruvi tapixi. – Toshkent.: 2012. – B. 380-392.
10. Muqimov Znyodulla. O‘zbekiston davlati va huquqi tapixi. Oliy o‘quv yuqtlari talabalari uchun daplak. – T.: “Adolat”, 2003. – 280 bet.
11. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959. – Б. 286.
12. Абул-Ғози Баҳодирхон. Тарихи турк. Сўз боши, нашрга қайта тайёрловчи, изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов ва Н.Ҳамраева. Асар нашрига кириш ва табдил муаллифи академик Б. Аҳмедов. – Панжакент, 2022. – 304 б.